XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 16-sentabr VII-13-129-11-0-K/25 Farg‘ona viloyati

Viloyat hokimligi huzuridagi “Kichik va yoshlar sanoat zonalarini boshqarish bo‘yicha yagona direksiyasi” balansida bo‘lgan davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to‘lovining eng kam stavkalarini belgilash haqida

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 23-iyundagi PF–98-son Farmoni 3-bandida muvofiq, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining tashabbuskorligini yanada oshirish maqsadida, davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to‘lovining eng kam stavkalarini belgilash vakolati Xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga berilgan.

O‘zbekiston Respublikasining 2024 yil 24 dekabrdagi “2025 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-sonli Qonuni 8-ilovasi bilan 2025 yil uchun mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalari belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra umumiy maydonning 1 kv. metri uchun oylik ijara to‘lovi stavkalarining eng kam miqdorlari noturar joy uchun Nukus shahri va viloyat markazi bo‘lgan shaharlarga 26 500 so‘m etib belgilangan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni 12-moddasida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar Kengashlari ushbu Qonun 8-ilovasining 1-bandida belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga nisbatan tumanlar va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishi darajasiga qarab 2,0 gacha oshiruvchi koeffisiyentni joriy etishga haqliligi belgilangan.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi 2025 yil 23 iyuldagi 01/26-18/652 – sonli ko‘rsatma xati orqali O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-iyundagi PF–98-son Farmoniga asosan bundan buyon davlat ko‘chmas mulk obyektlari joylashgan hududning joylashuvi (viloyat markazlari, yirik shaharlar va olis hududlar), jozibadorligi va bozor kon’yunkturasi hamda infratuzilma bilan ta’minlanganligini inobatga olgan holda tahlillar asosida ijara to‘lovining eng kam stavkalarini Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari belgilashlari, jumladan amaldagi stavkalarni qayta ko‘rib chiqishlari maqsadga muvofiqligini ma’lum qilgan.

Shunga ko‘ra, viloyat hokimligi huzuridagi “Kichik va yoshlar sanoat zonalarini boshqarish bo‘yicha yagona direksiyasi” (keyingi matnlarda - Direksiya) 2025 yil

11 avgustdagi 300-sonli xat bilan xalq deputatlari viloyat Kengashiga murojaat qilib, Direksiya balansida bo‘lgan davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to‘lovining eng kam stavkalarini belgilash masalasini korib chiqishni so‘ragan.

Xususan, bugungi kunda Direksiya balansida viloyatning 6 ta hududida ya’ni Farg‘ona shahar, “Shodiyona” MFY “Mashinasozlar” KSZda 83 366 kv. m, “Ko‘prikxo‘jaligi” KSZda 200 kv.m, Marg‘ilon shahar “Navro‘z” MFY “Navro‘z” KSZda 8 499,9 kv.m, “Nadirmat” KSZda 17 791,8 kv.m, Quvasoy shaxar “Polmon” MFY “Quvasoy chinnisi” KSZda 46 078,0 kv.m, Dang‘ara tumani “Navbaxor” MFY “Suvinshootta’mir” KSZda 9 795,0 kv.m, Quva tumani “Turk” MFY “Turk” KSZda 788,0 kv.m, Furqat tumani “Besh echki” MFY “Istiqlol” KSZda 9 774,0 kv.m jami 176 294 kv.m binolar mavjud bo‘lib, 1 kv. metr bino uchun ijara stavkalari 2022 yilda 10 400 so‘m, 2023 yilda 11 900 so‘m hamda 2024 yilda 13 700 so‘m belgilangan.

Direksiya va manfaatdor tashkilotlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasining “2025 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni 8-ilovasi talablaridan kelib chiqib, Direksiya balansida mavjud bo‘lgan davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun 2025 yil uchun ijara to‘lovining eng kam stavkalari qayta ko‘rib chiqilgan hamda belgilanishi lozim bo‘lgan (taklif etiladigan) ijara stavkasi miqdori viloyat hokimligi bilan kelishilgan.

O‘zbekiston Respublikasining 2024 yil 24 dekabrdagi O‘RQ-1011-sonli Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-iyundagi PF-98-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari viloyat kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1. O‘zbekiston Respublikasining 2024 yil 24 dekabrdagi O‘RQ-1011-sonli Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-iyundagi PF-98-son Farmoni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Direksiyaning 2025 yil 11 avgustdagi 300-sonli xati hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2025 yil 23 iyuldagi 01/26-18/652 – sonli ko‘rsatma xati inobatga olinsin.

3. Mazkur masala xalq deputatlari viloyat Kengashining “Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi tomonidan o‘rganib chiqilganligi va doimiy komissiya majlisida muhokama qilinib, viloyat Kengashi sessiyasi kun tartibiga kiritish to‘grisidagi qarori asos uchun qabul qilinsin.

4. Direksiya balansida mavjud bo‘lgan davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun 2025 yil uchun ijara to‘lovining eng kam stavkalari (keyingi matnlarda - ijara stavkalari) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Belgilasinki, mazkur ijara stavkalari faqatgina 2025 yil uchun Direksiya balansida mavjud bo‘lgan davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun qo‘llaniladi.

6. Direksiya (X.Xabibidinov), O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi Farg‘ona viloyati hududiy boshqarmasi (Q.Xusanov), Soliq boshqarmasi (M.Mamatxonov) hamda tegishli tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda qo‘llanilishi belgilangan ijara stavkalari, uni shakllantirish tartibi va qo‘llanilishi yuzasidan tushuntirish va targ‘ibot ishlarini (tadbirlarini) olib borsin.

7. Direksiya (X.Xabibidinov):

Direksiya balansida bo‘lgan davlat mulkini ijaraga berishni tashkil etish va ijaraga berish;

ijaraga berilgan davlat mulkini va uni ijaraga berishdan tushadigan mablag‘larni hisobga olish va monitoringini olib borish;

ijaraga beriladigan davlat mulki bo‘yicha ma’lumotlar bazasini shakllantirish;

ijara obyektlaridan maqsadli foydalanilishini va ularning saqlanishini, shuningdek ijara to‘lovi o‘z vaqtida va to‘liq to‘lanishini ta’minlash va nazorat qilish;

davlat mulkini ijaraga berish sohasidagi qonunchilikni buzish holatlari aniqlangan hollarda tegishli ma’lumotlar (xulosalar) rasmiylashtirish va vakolatli organlarga yuborish;

foydalanilmayotgan davlat mulki ijaraga berilishi to‘g‘risidagi e’lonlarni va ijaraga berilayotgan davlat mulklari ro‘yxatlarini davriy nashrlarda hamda viloyat hokimligining, Direksiya va O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi Farg‘ona viloyati hududiy boshqarmasining veb-saytlarida va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida joylashtirilishini ta’minlash tavsiya etilsin.

8. Viloyat hokimining orinbosarlari M.Ubaydullayev va N.Mamajonovlarga O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi Farg‘ona viloyati hududiy boshqarmasi (Q.Xusanov) hamda Soliq boshqarmasi (M.Mamatxonov) bilan birgalikda Direksiya tomonidan ijara stavkalarini belgilangan tartibda qo‘llab borilishini monitoring qilib borish tavsiya etilsin.

9. Direksiya (X.Xabibidinov) davlat mulkini ijaraga berishda:

davlat mulkini ijaraga berish jarayonining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash hamda ijara shartnomasi amal qiladigan muddat mobaynida ijaraga oluvchi tomonidan zimmasiga olingan majburiyatlarning lozim darajada bajarilishini nazorat qilib boradi.

yuridik shaxslar, jumladan, tadbirkorlik subyektlari va jismoniy shaxslarga ijaraga beriladigan davlat mulklari haqida zarur ma’lumotlar *(ijaraga beriladigan davlat mulklarining parametrlari, kommunikatsiyalar bilan ta’minlanganligi, fotosurati, davlat mulkidan foydalanish maqsadi, ijara muddati va ijaraga berish shartlari)* berib borish hamda zarur amaliy-huquqiy yordam ko‘rsatib borish;

ijaraga beriladigan davlat mulklari targ‘ibotini amalga oshiradi.

10. Viloyat hokimligi Axborot xizmati (M.Sulaymonov), Direksiya bilan birgalikda viloyat teleradiokompaniyasi hamda viloyatdagi boshqa ommaviy axborot vositalarida, hokimlik muassisligidagi gazetalarda qo‘llanilishi belgilangan ijara stavkalarini e’lon qilinishi hamda hokimliklarning rasmiy veb-saytlariga joylashtirilishini tashkil etsin.

11. Ushbu qaror rasmiy nashrda e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

12. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining “Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi (R.Kamolov) hamda viloyat hokiminig o‘rinbosarlari M.Ubaydullayev va N.Mamajonovlar zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



KOMILOV
XOLMATJON
ADILOVICH

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati Kengashining
2025-yil 16-sentabrdagi
VII-13-129-11-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

ilova

Viloyat hokimligi huzuridagi “Kichik va yoshlar sanoat zonalarini boshqarish bo‘yicha yagona direksiyasi” balansida bo‘lgan mavjud davlat ko‘chmas mol-mulkini 2025 yil uchun yillik eng kam ijara stavkalari

T/r	**Ijaraga beriladigan mol-mulk turi**	**Belgilangan stavka miqdorini tavsiflovchi ko‘rsatkich**	**Yillik ijara to‘lovi stavkalarining eng kam miqdorlari, so‘mda (QQS bilan birga)**	
			Viloyat markazi Farg‘ona shahri uchun	Boshqa xududlar uchun
1	Bino-inshootlar (noturar joylar)	Umumiy maydonning 1 kv. metri uchun	41 910	24 765